

## NOQIS LIRIKASINING POETIK XUSUSIYATLARI

(Bir gʻazal misolida)

**Mohidil USMONOVA,**

*QarDU magistranti*

*mohidilusmonova365@gmail.com*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20677117>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab, ijod etgan isteʼdodli shoir Noqis Kattaqoʻrgʻoniy poetik mahorati haqida soʻz boradi. Shoirning “Xijil” radifli gʻazali tahlili asosida ijodkor sheʼriyatidagi oʻziga xos jihatlar ochib beriladi. Shuningdek, gʻazaldagi badiiy sanʼatlar aniqlanib, ularning gʻazal mazmunini kuchaytirishdagi oʻrni aniqlanadi. Bundan tashqari, Sharq mumtoz adabiyotida “ilmi sanoye” ning nazariy asoslari hamda sheʼriy sanʼatlarning ayrimlari haqida dalillangan xulosalar keltiriladi.

**Kalit soʻzlar:** mumtoz adabiyot, ilmi sanoye, qoʻlyozma, adabiy muhit, poetika, gʻazal, tavzeʼ.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается поэтическое мастерство талантливого поэта Накис Каттакургани, жившего и творившего в конце XIX — начале XX века. На основе анализа газели поэта с радфом «Хижил» выявляются характерные особенности его творчества. Также определяются художественные приемы в газели и их роль в усилении содержания газели. Кроме того, приводятся обоснованные выводы о теоретических основах «ilmi sanoye» в классической восточной литературе, а также о некоторых поэтических приемах.

**Ключевые слова:** классическая литература, научные знания, рукопись, литературная среда, поэтика, газель, тавзе.

**Annotation.** This article discusses the poetic mastery of the talented poet Nakis Kattakurgoniy, who lived and created at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century. Based on the analysis of the ghazal with the rhyme 'Xijil,' the unique aspects of the poet's creativity are revealed. Additionally, the artistic devices in the ghazal are identified, and their role in enhancing the meaning of the ghazal is determined. Furthermore, the theoretical foundations of 'ilmi sanoye' in classical Eastern literature, as well as some poetic arts, are presented with evidenced conclusions.

**Key words:** classical literature, science of arts, manuscript, literary environment, poetics, ghazal, tavzeʼ.

Maʼlumki, adabiyotimiz tarixida XIX asr oxiri va XX asr boshlari xonliklar davri adabiyoti yoxud adabiy muhitlarning shakllanishi va rivojlanishi davri deb yuritiladi. Buxoro xonligi tarkibidagi Kattaqoʻrgʻon shahri (Samarqand)da vujudga kelgan Kattaqoʻrgʻon adabiy muhiti shular jumlasidan. U yerda faoliyat yuritgan Nojiy, Shavqiy Kattaqoʻrgʻoniy singari mohir soʻz ustalari tomonidan yaratilgan lirik meros koʻlami va badiiy qiymati adabiyotshunosligimizda alohida eʼtirof etiladi. Bunday shoirlar qatorida biz Noqis Kattaqoʻrgʻoniy nomini ham keltirishimiz mumkin.

Abdulqodir Muhammadshokir oʻgʻli Noqis 1860-yil Kattaqoʻrgʻon shahrida tugʻilgan. “Noqis XIX asrning 80-yillaridayoq isteʼdodli shoir sifatida shuhrat

topdi.”[1. 294] Noqis o‘zbek va fors tillarida ijod qilgan va uning lirik merosi katta qismini g‘azallar tashkil qiladi.

Biz Noqis devoni bilan tanishar ekanmiz, ijodkorning mumtoz poetika nazariyasidan puxta xabardorligini va o‘z g‘azallarida badiiy san’atlardan unumli foydalanganligini ko‘rishimiz mumkin. “U yoki bu ijodkor salohiyati haqida so‘z borganda, uning nimalarni tasvirlagani emas, asosan, qanday tasvirlaganiga e‘tibor qaratilgan. Jumladan, adabiy asarlarda she‘riy san’atlardan foydalanish mahorati hamma asarlarda badiiy san’atkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan. [2. 4] O‘z navbatida she‘riy san’atlar ham uch turga bo‘linadi. Ya‘ni: “Nutq go‘zalliklari uch qism bila cheklanur. Ul jihattinkim, har go‘zallik yo faqat lafz go‘zalligidur, yo faqat ma‘no go‘zalligidur yoxud lafz-u ma‘no yig‘indisining go‘zalligidur”.[3. 34] Biz quyida Noqisning “Xijil” radifli g‘azalini tahlil qilish asosida, undagi badiiy ifoda vositalari va she‘riy san’atlarga to‘xtalamiz.

Odatda, klassik shoirlar devonlaridagi g‘azallarning ikki yoki uch baytida she‘riy san’atlarni uchratishimiz mumkin. Kamdan kam hollardagina g‘azalning boshidan oxirigacha, ya‘ni har bir baytida bir nechta badiiy san’atlar bo‘lishi mumkin. Biroq Noqisning “Xijil” radifli g‘azali nafaqat ifoda usulining go‘zalligi, balki har bir baytlarda bir qancha lafziy, ma‘naviy va mushtarak san’atlardan foydalanilganligi bilan ham alohida e‘tiborga loyiq. G‘azal matla‘si quyidagicha:

Mehr mohing, ohu chashming, gul jamolingdin xijil,

To‘ti nutqingdin xijil, bulbul maqolingdin xijil.[4. 14]

Birinchi baytdanoq oshiq o‘z yorini hamma narsadan ustun qo‘yadi. Go‘zallikda tengsiz dilbar yuzi oldida hatto gul ham xijolat, ko‘zlari ohuni ham xijil qiladi, uning guftori oldida bulbul ham to‘ti ham ojiz qoladi. Baytda ta‘did, tanosub, takrir kabi san’atlardan foydalanilgan. Endi keyingi baytga e‘tibor qaratamiz:

Vo‘sma qoshing qorasidin, surma ko‘z savdosidin,

Xat yuzingni safhasidin, nuqta xolingdin xijil.[5. 14]

Ushbu baytda g‘oyat mukammal va badiiy jihatdan o‘ziga xos tasvir yaratilgan. Tashbeh, tashxis, iyhom, ta‘did, tanosub san’atlari umumlashib go‘zal ma‘no yaratgan. Ya‘ni, o‘sma yor qoshini, surma esa uning ko‘zini ko‘rib o‘zini keraksiz his etdi. Vaholanki, ularning vazifasi qizlarga zeb berish. Ammo Noqisning yori shunchalar chiroyliki, unga o‘smaning ham surmaning ham keragi yo‘q. Hattoki, yor yuzidagi xolidan nuqta ham xijolat.

Jilva g‘amzangdin xijolatmand, g‘amzang jilvadin,

**Shula’i sham’i shabistondur, shu’oingdin xijil** [6. 14]



Bu baytda Noqisning poetik mahorat yanada yorqinroq ko‘rinadi.. Bayt nafaqat o‘zining mazmuni, balki shakli bilan ham kishi diqqatini o‘ziga tortadi. E‘tibot qaratsak, ushbu misraning har bir so‘zi “sh” harfi bilan boshlanyapti. Bu g‘azalga musiqiylik va o‘ziga xoslik beryapti. Ilmi sanoye‘da bu san‘at tavze’ (alliteratsiya) deb yuritiladi. “Tavze’- baytda bir xil tovushlarni bir necha marta takrorlashga asoslangan san‘at. Bunda shoir o‘z fikrini ifodalash uchun yangroqdosh, ya’ni bir xil yangroq tovushga ega bo‘lgan so‘zlardan foydalanadi” [7. 182]

Xulosa qilib aytganda, Abdulqodir Noqis badiiy salohiyati, nodir iste’dodi yuqoridagi birgina g‘azal tahlilidan ham ko‘rinib turibdi. Agar Noqis devoni to‘laligicha tabdil etilib, tahlil qilinsa, adabiyotimizning yana bir mumtoz so‘z san’atkori lirik merosi munosib e’tirof topgan bo‘ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anvar Hojiahmedov “Mumtoz badiiyat malohati”, “Sharq”, Toshkent, 1999, 4b.
2. “Asrlar nidosi” (antologiya): G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, Toshkent-1982. 294-296 b
3. Atulloh Husayniy “Badoye’ us-sanoye’”, “G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti”, Toshkent-1981. 34b.
4. “Devoni Ravnaq” qo‘lyozma, O‘zFA Sharqshunoslik instituti (inv. №97) 14b.
5. Dilnavoz Yusupova “Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari”, (o‘quv qo‘llanma) Toshkent-2018. 182b.